

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**110000 – Pedagogika ta'lism sohasi negizidagi:**

5A110903 – Ta'lim muassasalarining boshqaruvi;

**Magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus (ixtisoslik)  
fanlaridan  
DASTUR**

**Chirchiq – 2021-y.**

## **Annotatsiya**

Mazkur dastur 110000 – Pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat yo’nalishlarining 2018-yilida tasdiqlangan o’quv rejasidagi “Umumiy pedagogika” umumkasbiy o’quv fanining uchta kursi (“Pedagogika nazariyasi”, “Pedagogika tarixi”, “Pedagogik mahorat”) bo’yicha 5A110903 – Ta’lim muassasalarining boshqaruvi, mutaxasisligi bo’yicha o’qishga kiruvchilar uchun mo’ljallangan.

### **Tuzuvchi:**

F.U.Jumanova – TVCHDPI “Pedagogika va menejment” kafedrasi mudiri, p.f.n,v.b.dotsent.

R.Musurmonov – TVCHDPI “Pedagogika va menejment” kafedrasi, p.f.n,v.b.dotsent.

Dastur pedagogika va psixologiya fakultetining 2021-yil 30-iyundagi 9 -sonli Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

## Kirish

5A110903 – Ta’lim muassasalarining boshqaruvi magistratura mutaxasisligi bo'yicha o'qishga kiruvchilar uchun test savollari pedagogika oliv ta'lim muassasalarining barcha bakalavriat yo'nalişlarida o'qitilgan "Pedagogika nazariyasi", "Pedagogika tarixi", "Pedagogik mahorat" kurslari mazmuni asosida tayyorlangan.

"Pedagogika nazariyasi" kursi pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatları va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatları, tamoyillari, tarbiyaning umumiyligi metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta'lim muassasalarini boshqarish, korrektcion pedagogika asoslarini o'z ichiga qamrab oladi.

"Pedagogika tarixi" kursi pedagogikaning alohida sohasi sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish orqali yangi, istiqbolda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini ko'rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan keyingi davrda pedagogik fikrlar va ta'lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarida tarbiya, ta'lim va pedagogik fikrlar rivojiga doir masalalarni o'zida aks ettiradi.

"Pedagogik mahorat" kursida pedagogik mahorat va madaniyat, ta'lim amaliyoti va pedagogik fikrlar tarixida o'qituvchi mahorati masalasining aks etishi, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining kommunikativ qobiliyat, muloqot psixologiyasi va muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, pedagogik takt va pedagogik etika, pedagogik texnika va uni egallash yo'llari, nutq madaniyati, o'qituvchining o'quv jarayonidagi mahorati, o'qituvchining tarbiyachilik mahorati, o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash, ilg'or pedagogik tajribani ommalashtirish kabi masalalar o'rganiladi.

### **"PEDAGOGIKA NAZARIYASI" kursi bo'yicha:**

Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogika fanining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Pedagogik fanlarning tuzilishi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif. Shaxs tushunchasi. Shaxs rivojlanishi. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Shaxs rivojlanishining yosh davrlari. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi. Yaxlit pedagogik jarayonnning tarkibiy qismlari. Pedagogik jarayon qonuniyat va tamoyillari. Tarbiya jarayonining mohiyati. Tarbiya jarayonining o'ziga xosliklari. Tarbiya jarayonining qonuniyat va tamoyillari. Jamoa tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari. Tarbiya metodlari, usullari

va vositalari tushunchasi. Tarbiya metodlari tsnifi. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish. Pedagogik rag'batlantirish metodlari va xulq-atvorni tuzatish. Tarbiyada nazorat, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari. Dunyoqarash va uning vazifalari. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiyaning maqsadi va mazmuni. Fikrlash va uning turlari. Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Fuqarolik tarbiyasi funksiyalari. O'quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzları (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasi. Vatanparvarlik va baynalmilallik – fuqarolik tarbiyasi asosi. Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy madaniyati va ongini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Iqtisodiy tarbiya mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida. Axloqiy tarbiyaning mohiyati va mazmuni. O'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning shakl, metod va vositalari. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari. Ekologik tarbiyaning mohiyati va mazmuni. Ekologik tarbiyaning shakl va metodlari. O'quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari. Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning ob'ekti, predmeti va funksiyalari. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Ta'lim jarayoni mohiyati. O'rganish bilish faolligi shakli sifatida. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. Sharq va G'arb mutafakkirlarining gnoseologik g'oyalari ta'lim jarayoni asosi sifatida. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari. Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Ta'lim mazmunini tashkil etish konsepsiysi. Ta'lim mazmunini belgilovchi me'riy hujjatlar DTS, o'quv reja, o'quv dasturi. Darslik va o'quv qo'llanmalar. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining funksiyalari. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim turlari. Ta'limni tashkil etish tizimi: individual, sinf-dars, ma'ruza-seminar. Darsning turlari va tuzilishi. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. Akademik litsey, kasb-hunar kollejlariда ta'limni tashkil etish shakllari. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

## **“PEDAGOGIKA TARIXI” kursi bo'yicha:**

Ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari ba unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Diniy kitob-larning tarbiyaviy ahamiyati. Qur'oni Karim – axloqiy-falsafiy ta'limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo'lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi. IX-XI asrlar – Sharq Uyg'onish davri. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari. Abu Ali ibn Sinoning tarbiya va ta'lim haqida. Sharq Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari – pandno-ma asar sifatida. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar. Kaykovusning "Qobusnama" asarining tarbiyaviy ahamiyati. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan mar-kazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Ulug'bek davrida maktab islohoti. Zahirid-din Muhammad Boburning pedagogik fikrlari. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. Navoiyning oqituvchi (mudarris) to'grisidagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqiy Jaloliy" asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o'rni. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari – husnihatga doir dastlabki qo'llanma sifatida. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asari – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta'lim rivojidagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. Mah-mudxo'ja Behbudi, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari. Turkiston o'lkasida ta'lim syosati (1917-1924). 1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani. 1945-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji. Mustaqill O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" – Respublikamizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik yillarda pedagogik fikrlar rivojinining asosiy yo'naliishlari. I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojinining ma'naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir

kontseptual fikrlarning ifoda etilishi. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to'g'risida. Qadimgi Rimda pedagogik g'oyalar rivoji. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nshr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g'oyalari. G'arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang'ich ta'lif metodikasiga qo'shgan hissasi. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta'lif nazariyasi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi. XIX asrning oxiri – XX asrda G'arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo'nalishlari. M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidagi o'rni. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'grisida. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi. Juhon mamlakatlari ta'lif tizimi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lif tizimi. Ta'lif modellari. XX asr jahon ta'lif tizimidagi global tendentsiyalar. Xalqaro loyihalar va ta'lif dasturlari.

### **“PEDAGOGIK MAHORAT” kursi bo'yicha:**

Pedagogik faoliyat va uning o'ziga xos xu-susiyatlari. “Pedagogik mahorat” tushunchasi. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'qituvchining umummadaniy saviyasi va qobiliyati. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagog shaxsining insonparvar yo'nalganligi. Pedagogik eruditsiya. Pedagogik qobiliyat. Pedagogik madaniyat. Pedagogik texnika. Pedagogik qobiliyatning umumiyoq tavsifi. Pedagogik qobiliyat turlari. Pedagogik qobiliyatning tayanch, yetakchi va yordamchi xususiyatlari. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari. Kommunikatsiya haqida tushuncha. Kommunikatsiya metodlari. O'qituvchining kommunikativ malakasi. Kommunikativ ta'sir etish yo'li. O'qituvchining kommunikativ madaniyati. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari. Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Pedagogik muloqotning tuzilishi va metodlari. Pedagogik muloqot uslublari. Muloqot madaniyati. Pedagogik nizo va uning sabablari. Pedagogik nizolarning oldini olish yo'llari. Takt va pedagogik takt haqida tushuncha. Takt va taktika. Pedagogik taktni qo'llash shartlari. Pedagogik odob. Pedagogning muomala odobi. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika. Pantomimika. O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari. Nutq haqida tushuncha. Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari. Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, rit-mika. Leksik madaniyat. O'qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo'llari. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati. O'qituvchining kun tartibi va ish o'rni. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillari. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallar toplash. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash metodlari.

**5A110903 – Ta’lim muassasalarining boshqaruvi magistratura  
mutaxassisliklariga kirivchilar uchun maxsus  
(ixtisoslik) fanlaridan kirish imtihoni yozma ishlarini  
o`tkazish tartibi va baholash mezoni**

Ixtisoslik fanlari bo`yicha magistraturaga kirish imtihoni “Yozma ishi” ko`p variantli usulda o`tkaziladi. Har bir variantda beshtadan savol aks ettiriladi.

“Yozma ish” variantlarining birinchi savoli “Pedagogika nazariyasi”, ikkinchi savoli “Pedagogika nazariyasi”, uchinchi savoli “Pedagogika tarixi”, to`rtinchi savoli “Pedagogika tarixi”, beshinchi savoli esa “Pedagogik mahorat” fanidan bo`lib, har bir savol 20 balli tizim asosida baholanadi.

Yozma ishni o`tkazish uchun uch (akademik) soat vaqt beriladi.

**Ixtisoslik fanlaridan magistratura kirish imtihoni yozma ishidagi har bir savoldan talabalar bilimi quyidagi mezon asosida baholanadi:**

- berilgan savolga to‘g‘ri va to‘liq javob yozilsa, savolning mazmuni, mohiyati to‘g‘ri va izchil yoritilsa, shuningdek, ijodiy yondashilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **17–20** ball oralig‘ida baholanadi;

- berilgan savolga to‘g‘ri javob yozilsa, savolning mazmuni to‘liq yoritilgan bo‘lsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 14– 16 ball oralig‘ida baholanadi;

- berilgan savolga to‘g‘ri javob yozilsa, biroq berilgan savolning mazmuni to‘liq yoritilmagan bo‘lsa, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **11–13** ball oralig‘ida baholanadi;

- berilgan savolga javob noto‘g‘ri yoki yuzaki javob yozilsa, qo‘yilgan masalaning mohiyati mazmuni ochib berilmasa, unda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **0 - 10** ball oralig‘ida baholanadi.

Ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi bo‘yicha umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi **0** dan **100** balgacha baholanadi (86-100 ball – a’lo, 71-85 ball – yaxshi, 55-70 ball – qoniqarli, 0-54 ball – qoniqarsiz).

**ESLATMA:** Kirish imtihoni jarayonida qo‘yilgan bahodan norozi bo`lgan abiturientlar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e`lon qilingan kundan e`tiboran 24 soat muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishga haqli. Imtihon komissiyasi va talaba o`rtasida baholash ballari bo`yicha yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan ko`rib chiqiladi hamda qabul komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda xulosa qilinadi.

**Foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro‘yxati:**

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
2. Ro’ziyeva D.I., Tolipov O’.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.

3. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
4. Mutualipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
5. Юзликаева Э., Мадьярова С., Янбарисова Э., Морхова И. Теория и практика общей педагогики. Учебник. – Т.: ТГПУ, 2014.
6. Калдыбекова А.С. Жалпы педагогика теориясы және практикасы. I. Педагогика теориясы. – Т.: ТДПУ, 2013.
7. Pedagogika / Nopedagogik olly ta'lim muassasalari uchun darslik. U.Inoyatov, N.Muslimov, D.Ro'zieva, M.Usmonboeva. – Т.: TDPU, 2013.
8. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiyy pedagogika. Darslik. – Т.: TDPU, 2012.
9. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiyy tahriri ostida. Darslik. – Т.: O`zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
10. Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. – М.: ВЛАДОС, 2003.
11. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2006.
12. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
13. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Т.: O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
14. Халиков А.А. Педагогик маҳорат. Дарслик. – Тошкент, Иқтисод молия, 2012.
15. Якушева С.Д. Основы педагогического мастерства. Учебник. – Москва.: Академия, 2012.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 1.Omonov N.T., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Т.: Iqtisod–moliya, 2009.
- 2.Маҳмудов Н. М. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
- 3.Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: “Fan va texnologiyalar” нашриёти, 2006.
- 4.Очилов М., Очилова Н. Ўқитувчи одоби. Сайланма. –Т.: Ўқитувчи,1997.
- 5.Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.
- 6.Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum.
- 7.Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.
- 8.Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Т.: Fan va texnologiya, 2008.
- 9.Kaldibekova A.S. Umumiyy pedagogika nazariyasi va amaliyotidan laboratoriya mashg'ulotlari. – Т.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

- 10.Niyozov G`., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg`ulotlari. – Т.: NOSHIR, 2011.
- 11.Нишонова С. Комил инсон тарбияси. – Т.: Истиқлол, 2003.
- 12.Ma’naviyat yulduzlar (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - Т.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.
- 13.Kagan,S. Cooperative learning. 2nd ed. San Clemente, CA:Kagan Publishing, 1994.
- 14.Hartlej I. Stratified from Programmed Instructional Technolog.- London, 2006, 179 r.
- 15.Heckhausen H. Motivation und Handeln. Berlin: Springer, 2011 – 244 p.
- 16.Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития. – Казань: КГУ, 1996.
- 17.Андреев В.И. Педагогика: Учебный курс для творческого саморазвития. 2-е изд. Казань: Центр информационных технологий, 2003. – 608 с.
- 18.Деркач А.А. Акмеология. – М.: РАГС, 2004.
- 19.Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – М.: Академия, 2003.
- 20.Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Питер, 2009.
- 21.Педагогический энциклопедический словарь. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002.
- 22.Педагогика: Большая современная энциклопедия / Сост. Е.С.Рапацевич.– Минск: «Современное слово», 2005.
- 23.Чернявская А.П. Педагогическое мастерство: Учеб. пособие.- Ярославль, ЯГПУ, 1997.
- 24.Рогов Е.И. Личность учителя: теория и практика. –Ростов-на-Дону. – Феникс. –1996.
- 25.Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал. – М.: Дело, 1994.





